



**UO‘K: 81-133**

## **AMERIKA OLIYGOHLARIDA TARJIMON MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TAJRIBALARI**

**Lutfullaev Po’latxon Muxibullaevich**

Namangan davlat chet tillari institut, Dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amerika oliygohlarida tarjimon mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy tajribalari o‘rganilgan. Tadqiqotda tarjimonlik ta’limi jarayonida qo’llaniladigan metodlar, pedagogik texnologiyalar va o‘quv dasturlari tahlil qilingan. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy ko’nigmalar bilan uyg‘unlashtirish tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Ishda ilg‘or o‘quv materiallari, onlayn platformalar va interaktiv usullarni qo’llash bo‘yicha Amerika tajribasi chuqur yoritilgan. Mazkur tadqiqot tarjimonlik bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish va milliy ta’lim tizimiga moslashgan ilg‘or yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ faoliyat, kasbiy faoliyat, kommunikatsiya, kompetentlik.

## **ОПЫТ АМЕРИКАНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ ПО ПОДГОТОВКЕ ПЕРЕВОДЧИКОВ**

**Аннотация.** В данной статье изучен современный опыт подготовки специалистов-переводчиков в американских университетах. В исследовании проанализированы методы, педагогические технологии и учебные программы, применяемые в процессе обучения переводу. Особое внимание уделено принципам интеграции теоретических знаний с практическими навыками. Работа подробно освещает опыт США в использовании передовых учебных материалов, онлайн-платформ и интерактивных методов. Данное исследование направлено на изучение возможностей повышения качества образования в области перевода и внедрения передовых подходов, адаптированных к национальной системе образования.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, коммуникативная деятельность, профессиональная деятельность, общение, компетентность.

## **PRACTICES OF PREPARATION THE TRANSLATORS IN US HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Abstract.** This article explores modern practices in training translation specialists at American universities. The study analyzes the methods, pedagogical technologies, and curricula applied in translation education. Special attention is given

*to the principles of integrating theoretical knowledge with practical skills. The work thoroughly examines the U.S. experience in utilizing advanced educational materials, online platforms, and interactive methods. This research aims to investigate opportunities for improving the quality of translation education and implementing advanced approaches tailored to the national education system.*

**Key words:** communicative competence, communicative activity, professional activity, communication, competence.

## KIRISH

AQShda tarjimon mutaxassislarni tayyorlash tizimi ta’limning nazariy va amaliy ko‘nikmalarni birgalikda olib boruvchi va uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilgan. Tarjimonlik bo‘yicha ixtisoslashgan dasturlar, konferensiylar tarjimonlik, yuridik tarjima hamda mahalliylashtirish kabi muhim yo‘nalishlarga qaratilgan. O‘quv dasturlari lingvistik bilimdonlik, madaniyatlararo kompetensiya hamda soha talablari uchun dolzarb bo‘lgan, jumladan, tarjimaga yordam beruvchi dasturlar (Computer-Assisted Translation, CAT) va mashina tarjimasi post-tahriri (MTPE) texnologiyalarini mukammal o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, ushbu dasturlar ko‘pincha xalqaro tashkilotlar, davlat idoralari va xususiy korxonalar bilan hamkorlikda amaliyot va haqiqiy loyihamor orqali talabalarni haqiqiy hayot sharoitlariga tayyorlashni nazarda tutadi. AQShda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar kognitiv tarjima tadqiqotlari va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan til yechimlari kabi sohalarni o‘z ichiga olgan holda, innovatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Akademik salohiyat va sanoat bilan samarali hamkorlikni uyg‘unlashtirish orqali bitiruvchilar xalqaro bozor talablariga yuqori darajada tayyor bo‘lishlari ta’minlanadi. AQSh oliy ta’lim muassasalarida tarjimonlarning tayyorlashdagi akademik salohiyatning nufuzini oshishi va muvaffaqiyatga erishishini bir qator faktorlarga bo‘lish mumkin. Birinchi faktor albatta ilmiy va akademik salohiyat bo‘lib, AQShning nufuzli universitetlari tarjimonlik ta’limiga ilmiy tadqiqotlarni integratsiya qilishda yetakchi hisoblanadi. Masalan, **Middlebury Xalqaro Tadqiqotlar Institutti** (Middlebury Institute of International Studies, MIIS) tarjimonlik texnologiyalariga oid tadqiqotlarda yetakchi bo‘lib, mashina tarjimasi (MT) va kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) texnologiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. MIISning Tarjima va Mahalliylashtirishni Boshqarish dasturi tarjimonlik texnologiyalarini, ayniqsa mashina tarjimasi va

kompyuter yordamidagi tarjimani o‘rgatishdagi kiritgan hissasi bilan mashhur bo‘lib, ATS (Amerika Tarjimonlar Assotsiatsiyasi) sertifikatlash imtihonlari uchun tayyorlov kurslarini taklif qiladi. MIIS o‘zining ilg‘or o‘quv dasturlari bilan talabalarni professional sertifikat olish uchun tayyorlab, o‘z bitiruvchilarini sertifikat olish uchun tayyorgarlikdan o‘tkazadi. Bitiruvchilarning aksariyati nufuzli tarjimonlik ishlarida faoliyat olib boradilar.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tadqiqot davomida Amerika oliygoхlarining tarjimonlik bo‘yicha o‘quv dasturlari, ta’lim texnologiyalari va amaliyotlarini analitik yondashuv orqali o‘rganildi. Masalan, **Middlebury Xalqaro Tadqiqotlar Institut** (Middlebury Institute of International Studies, MIIS) tarjimonlik texnologiyalariga oid tadqiqotlarda yetakchi bo‘lib, mashina tarjimasi (MT) va kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) texnologiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. MIISning *Tarjima va Mahalliylashtirishni Boshqarish* dasturi tarjimonlik texnologiyalarini, ayniqsa mashina tarjimasi va kompyuter yordamidagi tarjimani o‘rgatishdagi kiritgan hissasi bilan mashhur bo‘lib, ATS (Amerika Tarjimonlar Assotsiatsiyasi) sertifikatlash imtihonlari uchun tayyorlov kurslarini taklif qiladi. MIIS o‘zining ilg‘or o‘quv dasturlari bilan talabalarni professional sertifikat olish uchun tayyorlab, o‘z bitiruvchilarini sertifikat olish uchun tayyorgarlikdan o‘tkazadi. Bitiruvchilarning aksariyati nufuzli tarjimonlik ishlarida faoliyat olib boradilar. Kaliforniya Universiteti, Berkli (University of California, Berkeley) tarjima tadqiqotlarida kognitiv fanlar, semiotika (semiotics) va etikadan foydalanib, so‘nggi yillarda Neyron mashina tarjimasi (neural machine translation (NMT)) bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlari bilan tanilgan. Shu bilan birga bu universitet Tarjima va Tarjimonlik Magistratura dasturi (Master of Arts in Translation and Interpretation) talabalarni turli sohalarda, masalan, huquqiy, tibbiy va adabiy tarjima bo‘yicha ixtisoslashtiradi. Berkli universiteti bitiruvchilarining 97% i ish bilan ta’minlangan, ularning katta qismi yuqori darajadagi tarjima agentliklari va hukumat idoralarida ishlaydi.

Merilend Universiteti AQShda tarjima va tarjimonlik sohasida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan akademik dasturlarga ega oliygoх hisoblanib, unda akademik nashrlar va sohaga oid konferensiyalarini tashkil etishda yetakchidir. Har yili o‘tkaziladigan Tarjimonlik va Tarjima Tadqiqotlari Konferensiyasida 1000 dan ortiq o‘qituvchilar

va mutaxassislar ishtirok etadi. Chikago Universiteti ham tarjimonlik tadqiqotlarini rivojlantirishda katta hissa qo’shgan, ularning Chikago Usuli qo’llanmasi (The Chicago Manual of Style) kitobi xalqaro tarjimonlar tomonidan keng qo’llaniladi va tarjimonlik amaliyotining ilmiy asoslarini o’z ichiga oladi. Universitet xalqaro tashkilotlar, shu jumladan AQSh Davlat Departamenti va Jahon Banki bilan keng hamkorlik o’rnatgan. Talabalar ushbu hamkorliklardan foydalangan holda stajirovka va amaliy loyiha ishlari bilan shug‘ullanishadi. Masalan, universitetning tarjimonlik dasturi AQSh hukumati bilan hamkorlikda stajirovkalar taklif etadi, bu esa talabalar uchun diplomatik tarjima sohasida bevosita tajriba orttirishga yordam beradi.

Monterey Xalqaro Tadqiqotlar Instituti (Monterey Institute of International Studies, MIIS) o’zining ta’lim dasturlarida tarjima texnologiyalarini integratsiya qilishda yetakchi hisoblanadi. Ular mashina tarjimasi va kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) vositalarini birinchilardan bo’lib o’rnatgan. MIIS shuningdek, mahalliylashtirish va multimedia tarjimasi bo‘yicha maxsus kurslarni taklif qiladi, bu esa talabalarda xalqaro doirada madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini shakllanishiga zamin yaratadi. Kaliforniya Universiteti, Berkli (University of California, Berkeley) o’zining New York Universiteti (New York University, NYU) hamda o’zining Tarjima Magistratura dasturi bilan tanilgan va uning bitiruvchilari Birinchi Jahon Tashkilotlari va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarda ishlaydi. NYU, shuningdek, tarjimonlik tadqiqotlari va mashina tarjimasi texnologiyalarini o’z ichiga olgan dasturlarni rivojlantirishda ham yetakchi hisoblanadi. Universitetning tarjima dasturi turli nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, talabalarni insonparvarlik ishlari va xalqaro huquq bo‘yicha tarjima loyihalarida ishtirok etishini tashkil etdilar.

Shu o’rinda ushbu universitetlardagi o’quv dasturlarini yaratish (Curricular Design Practices) bo‘yicha ham tajribalariga to’xtalib o’tsak. Middleberi xalqaro tadqiqotlar instituti (Middlebury Institute of International Studies, MIIS) o’zining tarjimonlik ta’limida yaxlit va multidistsiplinar yondashuvni qo’llaydi. MIISning kurslari talabalarni madaniyatshunoslik, lingvistika va haqiqiy tilshunoslik bo‘yicha o’qitadi, bu esa talabalar uchun manba va maqsad tilining ijtimoiy va madaniy kontekstlarini chuqurroq o’rganish imkonini beradi. Kaliforniya Universiteti, Berkli ham tarjimada faqat lingvistik ko’nikma sifatida emas, balki madaniy muzokaralar

sifatida o‘qitiladigan yondashuvni qo’llaydi. Ularning o‘zaro madaniyatlararo kommunikatsiya kurslari talabalarni turli madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab tafovutlarni tarjima qilish uchun tayyorlaydi.

Amaliyot ishlarini tashkil etishda ham AQSh universitetlarida jiddiy e’tibor beriladi. Merilend Universiteti (University of Maryland) haqiqiy dunyo tarjimasi amaliyoti dasturini (real-world translation practicum) taklif etadi, unda talabalar jonli tarjima loyihalarida ishtirok etadilar va sanoat mutaxassislari bilan hamkorlik qiladilar. Bu tashabbus talabalar uchun tajriba orttirishga va portfel yaratishga imkon beradi, bu esa ishga kirishda juda muhimdir. Monterey Xalqaro Tadqiqotlar Instituti (Monterey Institute of International Studies, MIIS) ham shunga o‘xshash dasturga ega bo‘lib, talabalar xalqaro NHT va tarjima kompaniyalarida stajirovkalar o‘tashadi, bu esa ularga tarjima loyihalarini boshqarish bo‘yicha qimmatli tajriba beradi. Chikago Universiteti adabiy tarjima sohasida ham ilg‘or bo‘lib, bu sohaga xos bo‘lgan til o‘zgarishlari, tarixiy matnlar tarjimasi va maxsus kurslar bo‘yicha ixtisoslashgan. Nyu York Universiteti va Kolumbiya Universiteti texnik tarjima bo‘yicha maxsus dasturlarni taklif etadi, bu esa talabalarni huquqiy, tibbiyot va texnologiya sohalaridagi talablar bilan tanishtiradi.

AQShning tarjima dasturlari odatda tarjimonlik nazariyasining turli xil yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Kolumbiya Universiteti talabalarini ekvivalentlik nazariyasi (equivalence theory), dinamik ekvivalentlik (dynamic equivalence) va funktionalizm (functionalism) bilan tanishtiradi, bu nazariyalar tarjima amaliyotining asosini tashkil qiladi. Bu kurslar talabalarga o‘z tarjima loyihalarini boshlashdan oldin turli nazariyalarni amaliyotda qo’llash imkoniyatini beradi. Nyu-York Universiteti badiiy tarjima bo‘yicha kurslar taklif qiladi va talabalar turli tarjima nazariyalarini tahlil qilib, o‘z tarjima loyihalariga qo’llashadi. Shu bilan birga AQSh oliyohlari tarjimonlik dasturlarida madaniy kontekstni tushunish (Cultural awareness and context) asosiy ahamiyatga ega. Berklidagi Kaliforniya universiteti talabalari o‘z manba va maqsad tillarining madaniy aspektlarini o‘rganish uchun madaniyatshunoslik kurslaridan o‘tishlari shart. Monterey xalqaro tadqiqotlar instituti esa madaniy va ijtimoiy-siyosiy kontekstlarni tarjima qilishning ahamiyatini tushuntiradi va talabalarda madaniyatning nozik tafovutlarini e’tiborga olishga o‘rgatadi.

O‘quv dasturlarining aksariyatida kabi SDL Trados, MemoQ va Wordfast kabi eng so‘nggi tarjima texnologiyalaridan foydalanishga keng e’tibor beriladi. MIIS mashina tarjimasi va post-texnik tahrir kurslarini taklif qiladi. Merilend Universiteti ham kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) kurslarini taklif qiladi, shu jumladan huquqiy va texnik tarjimaga oid tarjima xotiralari tizimlaridan foydalanish. AQSh universitetlarida, masalan, Merilend Universiteti va Middlebury Xalqaro Tadqiqotlar Institutida tarjimonlikda etika muammolari, shu jumladan maxfiylik, neytralitet va maxfiy ma’lumotlarni boshqarish kabi mavzular o‘qitiladi. Talabalarni siyosiy yoki huquqiy tarjimadagi etik dilemmani (ethical dilemmas) o‘rganishda faol ishtirok etishga undaydi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

AQShda tarjimonlarni tayyorlash dasturlarining o‘quv dasturi loyihasi kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan keng qamrovli yondashuvlarga asoslangandir. Badiiy matnlarni tarjima qilishga qaratilgan tarjimashunoslikdan farqli o’laroq, ushbu dasturlar sog‘liqni saqlash, huquq, diplomatiya va xalqaro biznes kabi sohalar uchun funksional tarjima va talqin qilish ko‘nikmalarini ustuvor hisoblaydi. Dasturlar odatda quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

**1. Asosiy Kurslar:**

- Sinxron va va ketma-ket tarjima texnikalari.
- Yuridik, tibbiy va texnik sohalarda maxsus tarjima.
- Tarjima va interpretatsiyada etika me’yorlari va professionallik.
- Semantika, sintaksis va pragmatikani o‘z ichiga oluvchi ilg‘or lingvistik tadqiqotlar.

**2. Ixtisoslashgan Modular:**

- Mahalliylashtirish va audiovizual tarjima.
- Mashina tarjimasini post-tahrirlash (Machine translation post-editing (MTPE)).
- Sog‘liqni saqlash va davlat xizmatlari uchun soha tarjima.

**3. Bitiruv loyihalari (Capstone Projects) va amaliyotlar.**

- Aksariyat dasturlar bitiruv loyihalari bilan yakunlanadi, bunda talabalar haqiqiy hayotdagি tarjima va talqin qilish vazifalari ustida ishlashlari talab etiladi.

○ Birlashgan Millatlar Tashkiloti, AQSh Davlat Departamenti va xususiy sektordagi tarjima kompaniyalari kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliyot imkoniyatlari taqdim etiladi.

4. Texnologik Integratsiya:

○ SDL Trados va MemoQ kabi kompyuter yordamida tarjima qilish vositalaridan (CAT tools) keng foydalanish.

○ Masofaviy sinxron tarjima platformalari bo‘yicha tayyorgarlik.

5. Baholash Usullari:

○ Imtihonlar, jonli interpretatsiya sessiyalari va tarjima loyihalari orqali uzluksiz baholash.

○ Nazariya va amaliy ko‘nikmalarni qamrab oluvchi yakuniy imtihonlar.

Tadqiqot va innovatsiya ishlari tarjima va talqin qilish sohalarini rivojlantirishga faol hissa qo‘sjadi. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

○ Interpretatsiyadagi kognitiv jarayonlar: Sinxron tarjima paytida kognitiv yuk va jarayonlarni o‘rganish.

○ Tarjima texnologiyalari: Yangi CAT vositalari va MTPE metodologiyalarini ishlab chiqish.

○ Madaniyatlararo muloqot: Tillar va madaniyatlar bo‘ylab samarali muloqot strategiyalarini o‘rganish.

Amerika universitetlari tajribasi O‘zbekistondagi tarjimonlarni tayyorlash tizimi uchun bir qator dolzarb imkoniyatlar taqdim etadi. Bu tajriba, ayniqsa, texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali milliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy global dunyoda tarjimonlar nafaqat tilni bilishi, balki tarjima dasturlari va ma’lumotlar bazalari kabi texnologik vositalardan unumli foydalanishni o‘rganishlari lozim.

Madaniyatlararo muloqotga e’tibor qaratish talabalarni nafaqat tarjimon, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi mutaxassis sifatida ham tayyorlash imkonini beradi. Zotan, tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki ularning madaniy ma’no-mazmunini ham to‘g‘ri yetkazib berishi kerak.

Bundan tashqari, Amerika universitetlari bilan hamkorlikda xalqaro tashkilotlar, elchixonalar va turli kompaniyalar bilan tajriba almashish dasturlarini tashkil etish milliy ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu

hamkorlik talabalarni hayotiy amaliy vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi. Masalan, talabalarning xalqaro anjumanlarda tarjimon sifatida ishtirok etishi, amaliyot davomida xalqaro mutaxassislar bilan ishlashi ularga katta foyda keltiradi.

Shunday qilib, Amerika universitetlarining ilg‘or tajribasini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish O’zbekiston uchun keng imkoniyatlar yaratadi va professional tarjimonlarni tayyorlashda yangi bosqichga ko’tarilishga ko‘maklashadi

Oligohlardagi soha professor-o‘qituvchilar muntazam xalqaro loyihalarda ishtirokini, nufuzli jurnallarda maqolalar chop etashini va xalqaro konferensiyalarda ma’ruzalar o‘qishini kuzatish mumkin. E’tiborga molik yutuqlar qatoriga masofaviy interpretasiya va diplomatik kontekstda ko‘p tilli muloqotning yangi usullarini rivojlantirish kiradi.

Mukammal o‘quv reja asosida mashg‘ulotlarning olib borilishi, amaliyotiga e’tibor qaratish va tadqiqotni qo’llab-quvvatlash orqali AQShda tarjimonlarni tayyorlashda yetakchi ekanligagini kuzatish mumkin. Undagi boy tajribalar O’zbekistonda tarjimonlarni tayyorlashda ilmiy jihatdan o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisonlanadi.

## XULOSA

Demak yuqoridagi AQSh oliygohlari tajribalaridan kelib chiqib O’zbekiston uchun bir qator ilg‘or tajribalarni keltirish ta’kidlash mumkin. Masalan, **Middlebury xalqaro tadqiqotlar instituti va Monterey xalqaro tadqiqotlar instituti** kabi texnologiyalarni o’rgatish va ixtisoslashuvga e’tibor qaratish O’zbekistonda talabalarni xalqaro tarjima bozoriga tayyorlash uchun muhim. **Merilend Universiteti** misolida O’zbekistonda tarjima agentliklari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu talabalar uchun amaliy tajriba va sohada nufuzli ishlarga joylashishda yordam beradi. **Kaliforniya Universiteti, Berkli va Monterey xalqaro tadqiqotlar institutining metodlari** orqali O’zbekistonda tarjima ta’limini o’z ichiga olgan kurslarni kengaytirish, talabalarni manba va maqsad tillarining madaniy kontekstlarini yaxshiroq o’rganishga yordam beradi. **ATA (American Translators Association)** sertifikatsiya tizimini O’zbekistonda joriy etish, tarjimonlar kasbining nufuzini oshiradi. **Chikago Universiteti va Middlebury xalqaro tadqiqotlar instituti**

kabi tadqiqot muassasalarida tarjima bo'yicha ilmiy ishlarni rivojlantirish O'zbekistonning akademik imijini mustahkamlashi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Translation and Localization Management Program, Monterey Institute of International Studies. Retrieved from [www.miis.edu](http://www.miis.edu)
2. Pöchhacker, F. (2015). *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.
3. Tymoczko, M. (2007). *Translation in a Postcolonial Context: Early Irish Literature in English Translation*. St. Jerome Publishing.### References
4. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
5. Pym, A. (2014). *Exploring Translation Theories*. Routledge.
6. Hatim, B., & Mason, I. (2017). *Discourse and the Translator*. Longman.
7. Kelly, D. (2005). *A Handbook for Translator Trainers: A Guide to Reflective Practice*. St. Jerome Publishing.
8. American Translators Association (ATA). Retrieved from [www.atanet.org](http://www.atanet.org)
9. Pöchhacker, F. (2015). *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.